

8-SINF ONA TILI DARSLIGIDAGI “MUMTOZ MATN VA LUG’ATLAR BILAN ISHLASH” MAVZUSINING O’QITILISHI

Normurodova Zaynura G’olibjon qizi

Azamatova Gulsanam Turdali qizi

SamDU Kattaqo’rg’on filiali 3-bosqich talabalari

Sayipova D.

Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo’rg’on filiali o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11560417>

Annotatsiya. Mumtoz matnlar oddiy matnlardan tubdan farq qiladi. Oddiy matnlarda faqat bir tomonlama mazmun ilgari surilsa, mumtoz matnlarda ikki xil zohiriy va botiniy g’oya ilgari suriladi. Quyidagi maqolada 8-sinf ona tili darsligidagi Mumtoz matn va lug’atlar bilan ishlash” mavzularining o’qitilish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: mumtoz adabiyot namunalari, mumtoz matn, Talab vodiysi, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Haqiqat va majoz” Navoiyning “Muhokamat ul-ul lug’attayn”, “Donishmand ustoz” matnlari. “So’z bag’ridagi marifat” usuli.

Adabiy matnlar har doim til darslari uchun muhim material manbai bo’lib kelgan, chunki ular haqiqiy kontekstlarda tillardan keng foydalanishni namoyish etadi. Ta’kidlash joizki badiiy matnlar tilni o’qitishning sinfda va darsdan tashqari mashg’ulotlari uchun asosiy o’quv materiallarini to’ldirish uchun qimmatli manba sifatida ko’rib chiqilgan [1.49].

Ona tili darslarida nega aynan mumtoz adabiyot namunalari ustida ishlash kerak? Mumtoz asar ustida ishlash murakkab jarayon bo’lib, undan ko’zlangan maqsad ta’limni tarbiya bilan birga olib borish. Bolaning ongi rivojlanishi bilan birga uning lingvestik bilimlari ham kengayadi, so’f turkiy so’zlarni, arxaik so’zlar, fors tilidan kirib kelgan so’zlar bilan tanishishadi. Chunki mumtoz adabiyot namunalari shunday leksik birliklarni uchratish mumkin. Quyida Yangi nashr ettirilgan 8-sinf ona tili darsligi mualliflari Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne’matov, Muhabbat Abduraimova, Ra’no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev, mas’ul muharrirlar: G’ofir Hamroyev, Dilnoza Berdiyeva [2.1] 8-sinf ona tili darsligiga 102 soat ajratilgan Bundan “Mumtoz matn va lug’at ustida ishlash” mavzusi 9 soatni tashkil etadi. Mumtoz matnlarni o’qitishda bir qancha murakkabliklar, ichki va tashqi omillar mavjud. Bular mumtoz adabiyotning shakli va mazmuni, tushunish va tushuntirishda yondashuvlarning turlichaligi, lug’oviy tarkibdagi qiyinchiliklarda namoyon bo’ladi. Matnlardagi so’zlar arabiy va forisiyda ko’roq namoyon bo’ladi. Mumtoz matnlarni o’qitishda turli xil metod va usullarda, topshiriqlar va mas’uliyatlar asosida mustahkamlab o’rgatish mumkin. Birinchi bo’lib matnga aloqador tarzda topshiriq ishlab chiqish lozim. Quyida bir matn orqali topshiriqlar ishlab chiqamiz

Topshiriq:

1. Matnni ifodali o’qib chiqing.
2. Matndagi ajratib ko’rsatilgan so’zlar lug’atini tuzing
3. Matn mazmuni haqida qisqacha so’zlab bering.
4. Matn qaysi manbaadan olinganligiga diqqat qarating.

Quyidagi topshiriqni darslikdagi “Talab vodiysi” matni asosida bajaramiz. Matndan qisqacha parcha

TALAB VODIYSI

Chun talab vodiysig’a qo’y/sang qadam,

Ollinga har/ dam kelur yuz / ming alam.
 Har dam anda/ yuz malolat/ yuzlanur,
 Har nafas ming/ sa'b holat/ yuzlanur.
 Istamak ran/ji ko'ngulni/ zor etar,
 Topmomog'liq/ ruhni af/gor etar.
 Jonni kuydur/mak bo'lub mah/rumliq,
 Vaslining mi/odi noma'/lumliq.
 Ranj-u ko'shish/sanchibon jis/mingg'a nesh,
 Dardi noyob/ aylabon jo/ningni resh.
 Istabon top/may duri no/yobni,
 Mundadur tar/k aylamak as/bobni.
 Mol-u mulk-u/ har nedur so/likka band,
 To'rt takbi/ri fano ur/moq baland.

Alisher Navoiy, «Lison ut-tayir» [3.200].

Topshiriq javoblari:

1. Matn o'qib chiqildi.

2. Lug'atlar izohi

LUG'ATLAR IZOHI

Malolat-malol kelish

Sab'-sa'y-harakat

Afgor-xor bo'lgan

Mi'odi-muddat

Ko'shish-yara ,jarohat

Fano—o'tkincchi dunyo

Resh-sa'y -harakat

Sog'lik-komillik

Takbir-tig',nish

1. Sòzlab berildi.

2. Matn Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan olingan

Matnni "So'z bag'ridagi marifat" usuli asosida kengroq ma'noda , chizmalar orqali tushuntirib berish. Chizmalarni qay tartibda chizish o'qituvchining ijodkorligiga, Salohiyatiga bog'liq. Mumtoz matnlarni tushunish o'quvchi uchun biroz qiyinchilk tug'diradi. Shuning uchun iloji boricha ma'nosini saqlagan holda soddaroq shakilda tushuntirish lozim. Standartda mumtoz matnning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari matnni mustaqi o'qib tushunishga yo'llaydigan nazariy malumotlar o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib berilishi alohida ko'rsatilmaganligi bosi adabiyot, ona tili o'qituvchilari o'quvchi baribir mumtoz matnni tushunmaydi undan ma'no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro'kach qilib matn mazmunini so'zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar. Aksar hollarda matnni tahlil qilish "muallif bu yerda unday deyapti, bu yerda bunday deyapti" qabilidagi hissiz bayonlardan iborat bo'lib qolayotganligi kuzatiladi. Ona tili darslarida mumtoz matn bilan ishlashning bir necha turlarini keltirib o'tamiz. Matnni har tomonlama tahlil qilish. "Matnni tahlil qilish bo'yicha ishlar ona tili darslarida 5-sinf dan boshlanadi va yoshi va olgan bilimlarini hisobga olgan holda 11-sinf gacha turli xil metodlardan foydalanilgan holda davom

etadi. O'quvchilar lingvistik murakkab matn tahliliga moslashtirib boriladi. Va ularga topshiriqlar ishlab chiqiladi

Matnga sarlavha qo'ying.

Matn mavzusi.

Matnning asosiy g'oyasi.

Matn uslubi.

Matnda tushurib qoldirilgan harflarni kerak bo'lganda joylashtiring.

So'zning foneti tahlilini o'tkazing.

Matndan epitetlarni toping va yozing ma'nodosh yoki antonim so'zlarni ajratib oling

Matnni morfologik tahlil qiling"[4.4]

Shu kabi topshiriqlar orqali mumtoz matnni til ta'limida qo'llash mumkin.

References:

1. A.B.Xolmirzayev "Til va uning me'yorlari", Nukus, 2009 y
2. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2019.
3. Alisher Navoiy "Lison ut -tayr", Tashkent, 2020 y
4. www.pedagoglar.uz.